

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

YONG'OQDOSHLAR OILASI VAKILLARINING TIBBIYOTDA VA SANOATDAGI AHAMIYATI

Abdullayeva Gulnoza Komiljonovna

Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

Xasanov Kamola Jo'rabek qizi

Biologiya ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Email : xkamola9@gmail.com Termez, Uzbekistan

Annotatsiya : Ushbu maqolada Yong'oqdoshlar oilasi (Junglandaceae) vakillarining sistematikasi, tabiatda tarqalishi, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, sanoatdagi va tibbiyotdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Rudiment ginetsey, vitamin, efir moyil, gipertoniya, kamqonlik, qandli diabet.

Аннотация: В данной статье собраны сведения о систематике, распространении в природе особенностях строения представителей Орехового семейства (Junglandaceae) , а также их значения в промышленности и медицине.

Ключевые слова : Рудумент гинеей, витамин, эфирное масло, гипертония, анемия, сахарный диабет.

Annatation:This article contains information about the systematics, distribution in nature, structural features of representatives of the Nut qfamily(Junglandaceae), and their importance in industry and medicine.

Key words: Rudiment ginetsei, vitamin, essential oil, hipertension, anemia, diabetes.

Yong'oqdoshlar oilasi(Junglandaceae) 7 turkumga oid 60 ta turni o'z ichiga oladi. Barcha turlari Shimoliy yarim sharning subtropik va mo'tadil iqlimi mintaqalarida, ba'zi turlari Janubiy Amerikaning g'arbiy sohillarigacha, Malayziya va Yangi Gvineyada ham tarqalgan . Yong'oqdoshlar oilasi ikkita kichik oilaga ajratiladi: Yong'oqdoshchalar (Junglandoideae) - 6 ta turkum, Platikariyadoshchalar (Platycaryoideae) - 1 turkumi o'z ichiga oladi. Oilaning eng mashhur turkumlaridan biri Yong'oq (Junglans) turkumidir. Bu turkumga 15 ta tur mansub bo'lib, barchasi yirik daraxtlardir. Yong'oqdoshlar uchlamchi davrda juda rivojlangan va butun Shimoliy yarimsharda, Yevrosiyoda keng tarqalgan. Hozir esa ularning turlari ancha kamaygan. Areallarining qisqarishi davom etmoqda. [1]

Yong'oqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning ko'pchiligi bir uyli ayrim jinsli daraxtlar. Barglari to'q patsimon, murakkab, efir moyi ajratadigan bezlari bor. Bahorda barg chiqarishi bilan bir vaqtda gullaydi. Urug'chilik gullar ginetseyi 2 ta mevachibargning qo'shilishidan yuzaga kelgan bo'lib tugunchasi ostki. Changchili gullari kuchala to'pgulda joylashgan. Mevasi yong'oq meva. [1,2]

Oddiy yong'oq (Junglas regia L.) Ugam, Chotqol, Hisor tizmalarida keng tarqalgan. Bo'yi 30 - 45 m li diametri 2 metrgacha boradigan daraxt.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Mevasi uchun ekiladi. Tabiatda mevasining shakli, kattaligi, yong'og'i po'chog'ining tuzilishiga ko'ra juda xilma - xil shakllarini topish mumkin. Barglari, yirik, murakkab toq patsimon, poyada ketma - ket joylashgan. Bezli tukchalari hidli efir moylarini ajratadi. Gullari ayrim jinsli, bir uyli o'simlik. Changchili gullar soni 8-40 ga yetadi. Ba'zida changchili gullarida rudiment genitseyini uchratishimiz mumkin. Urug'chili gullari mayda, ko'rimsiz. Urug'chisi bitta yoki bir nechta bo'ladi. Mevasi yong'oq yoki danakli soxta meva bo'lib, avvalo sirtidan yashil etli po'stloq bilan o'ralgan. Mevasi po'stloqdan ajralgandan so'ng chin yong'oqqa aylanadi. Mag'zi burishgan, yirik urug'langan. [2]

Yongoqdoshlar oilasi vakillarining mevalari juda foydali bo'lib, vitamin va moylarga boy hisoblanadi. Oddiy yong'oq mevasi mag'zining 75% i moydan iborat. Bu uning to'yimlilikini oshiradi. Yong'oqning kaloriyaliligi oq nondan ikki barobar yuqoridir. 100 gr yong'oq mag'zida 850 kkal mavjud. Undan tashqari yong'oq mevasi huddi na'matak singari C vitaminiga hamda PP, B1, B2 vitaminlarga, temir, kobalt tuzlariga, rux va kalsiyga boy hisoblanadi. Yong'oqning ba'zi sharq mamlakatlaridagi nomi " To'rtta miya" ma'nosini anglatadi [5]. Darhaqiqat uning mag'zini ko'rinishigina miyaga o'xshab qolmay balki tarkibidagi moddalari ham miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kuniga hech bo'lmaganda 2 ta yong'oq iste'mol qilish hotirani yaxshilanishiga olib keladi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodod yong'oqning aqliy faoliyatga yaxshi ta'sir ko'rsatganligi bois Bobil koxinlari oddiy odamlarga yong'oq yeyishni taqiqlangani haqida yozadi.

Xalq tabobatida yong'oqning po'chog'i, mag'zi va moyidan foydalaniladi. Yong'oqning g'o'rasidan tayyorlanadigan murabbo gipertoniya, qandli diabetga davo bo'ladi. G'o'rasining o'zi kamqonlikda, mag'zining orasidagi to'siqlaridan tayyorlangan damlamani surunkali kolit, gipertoniya, qandli diabetga, yangi uzib olingan barglarininig suvi yallig'lanishi qarshi sirtga qo'yish uchun buyuriladi. Yong'oq po'choqlari qaynatib ichilsa yo'talni qoldiradi[4]. Po'choqlari qurutib qo'yilsa ancha vaqtgacha o'z xususiyatlarini yo'qotmaydi. Yong'oq tabobatida keng foydalanishi bilan bir qatorda sanoatdagi ham ahamiyatlidir.

Uning yog'ochi jilo berilib, silliqanib ro'zg'or buyumlari tayyorlashda va hunarmandchilikning turli sohalarda foydalaniladi. Barcha yog'ochlar kabi uning yog'ochidan ham qog'oz tayyorlashda foydalanish mumkin. Uning barglaridan va po'stlog'idan to'q jigarrang bo'yoq olinadi. Xom mevasining etidan vitaminlar olinadi. Barglari ishlab chiqaradigan efirdan ham turli sohalarda foydalanish mumkin.

Xulosa sifatida aytganda yong'oqdoshlar oilasi vakillari tabiatimizning va hayotimizning ajralmas qismidir. Ularning tibbiyot, sanoat, ko'kalamzorlashtirish va boshqa sohalarda keng ko'lamda foydalanilishi so'zimizning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Bu oila vakillari yurtimizda o'sishga yaxshi moslashganligini hisobga oladigan bo'lsak, ular resurslaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Pratorov. O', Shamsuvaliyeva. L, Sulaymonov. E , Axunov. X, Ibodov. K, Mahmudov. V . Botanika (Morfologiya, anatomiya, sistematikasi, geobotanika). Toshkent - 2010.
2. Matkarimova. A. A, Mahkamov. T. X, Maxmudova. M. M, Azizov. X. Ya, Vaisova G. B. Botanika (O'quv qo'llanma) Toshkent-2020.
3. Pratorov. O', Jumayev. Q. Yuksak o'simliklar sistematikasi. Toshkent-2003
4. Yuldashev. A Tabiatning o'zi tabib Toshkent- 2015
Internet ma'lumotlari
5. www.avitsenna.uz